

**TURIZM BOZORIDA TURIZM MUZEYSHUNOSLIGINING MOHIYATI,
RIVOJLANISH TARIXI VA ASOSIY KATEGORIYALARI**

Odilova Muattar

Bux.DU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18165094>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turistik muzeyshunoslikning shakllanishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari va zamonaviy turizm tizimidagi o'рни ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida muzey va turizm integratsiyasining nazariy asoslari, madaniy-ma'rifiy va aksiologik jihatlari, madaniyatlararo kommunikatsiya mexanizmlari hamda O'zbekiston va xalqaro tajriba o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, turistik muzeyshunoslik madaniy merosni saqlash bilan bir qatorda barqaror turizmni rivojlantirish va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: turistik muzeyshunoslik, muzey turizmi, madaniy turizm, madaniyatlararo kommunikatsiya, raqamli muzeylar.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируются процесс формирования туристической музеологии, этапы её исторического развития и роль в современной системе туризма. В ходе исследования изучены теоретические основы интеграции музеев и туризма, их культурно-просветительские и аксиологические аспекты, механизмы межкультурной коммуникации, а также опыт Узбекистана и международная практика. Результаты исследования показывают, что туристическая музеология имеет важное научно-практическое значение не только в сохранении культурного наследия, но и в развитии устойчивого туризма и укреплении межкультурного диалога.

Ключевые слова: туристическая музеология, музейный туризм, культурный туризм, межкультурная коммуникация, цифровые музеи.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the formation of tourism museology, its historical stages of development, and its role within the modern tourism system. The study examines the theoretical foundations of the integration of museums and tourism, their cultural-educational and axiological aspects, mechanisms of intercultural communication, as well as the experience of Uzbekistan and international practices. The results demonstrate that tourism museology plays an important scientific and practical role not only in preserving cultural heritage but also in promoting sustainable tourism development and strengthening intercultural dialogue.

Keywords: tourism museology, museum tourism, cultural tourism, intercultural communication, digital museums.

Kirish

Globalashuv jarayonlari va turizm sanoatining jadal rivojlanishi madaniy meros obyektlari, ayniqsa muzeylarning jamiyatdagi rolini tubdan o'zgartirdi. Zamonaviy sharoitda muzeylar faqat tarixiy va madaniy boyliklarni saqlovchi muassasa bo'lib qolmay, balki turistlar uchun asosiy diqqatga sazovor obyekt, ta'limiy va kommunikativ makon vazifasini ham bajarmoqda. Shu jarayonda "turistik muzeyshunoslik" tushunchasi alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi.

Muzeyshunoslik fani XIX asrda Yevropada paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning turizm bilan uzviy bog'lanishi XX asrning ikkinchi yarmida kuchaydi. Transport infratuzilmasining rivojlanishi, madaniy turizm konsepsiyasining shakllanishi va xalqaro tashkilotlar faoliyati muzeylarni turizm tizimining muhim bo'g'iniga aylantirdi. O'zbekiston sharoitida esa mustaqillikdan keyin muzeylar turizm siyosatining ustuvor yo'nalishlariga kiritildi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — turistik muzeyshunoslikning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari, amaliy yo'nalishlari hamda madaniyatlararo kommunikatsiyadagi rolini kompleks ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Muzeylar va madaniy meros obyektlarini turizm sohasi bilan uyg'unlashtirish O'zbekistonning madaniy salohiyatini namoyon etish va iqtisodiyoti rivojiga xizmat qiladi (Qaror, 2017). Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ushbu obyektlarda zamonaviy xizmatlar joriy etilishi, raqamli texnologiyalardan foydalanish, xalqaro tajribani o'rganish va mahalliy hamjamiyatni jalb etish orqali turizmni rivojlantirish mumkin. Shu bois, madaniy merosni asrab-avaylash bilan birga undan samarali foydalanish strategiyasi dolzarb hisoblanadi. Muzeylar va madaniy meros obyektlarini turizm rivojiga faol jalb qilishga doir davlat siyosati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi" (PQ-4947-sonli Farmon) (2017) asosida ilgari surilgan. Ushbu hujjatda turizm sohasini rivojlantirish, madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan samarali foydalanish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangandi. Iqtisodiy adabiyotlarda tarixiy-madaniy turizmga oid masalalar qator olimlar tomonidan o'rganilgan va turlicha ta'riflar berilgan.

Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg (1996) tarixiy-madaniy turizmni "kishilarning o'z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma'lumotlar va tajriba to'plash maqsadida odatiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi" deya ta'riflaydi.

Rossiyalik mutaxassis Kolotova (2016) tarixiy-madaniy turizmni "mamlakatning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olgan an'ana va urf odatlari, uy xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'langan ijtimoiy-madaniy muhit salohiyati" deya ta'riflaydi. I.T. Frolova esa tarixiy madaniy turizmga global miqyosda xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi omil va vosita sifatida qarab, rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi uchta: 1) madaniyat va madaniy merosga oid bilimlarni boyitish, 2) 127 www.sci-p.uz III SON. 2025 madaniyatni muhofaza qilish va qayta tiklash, 3) madaniyatlar muloqoti kabi yo'nalishlardan iborat deya hisoblaydi (Дмитриевский, 2000).

Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda madaniy turizmning asosiy gumanitar funksiyalari, sifatida quyidagilar qayd etiladi: - madaniy-ma'rifiy va ta'limiy; - madaniy muhofaza va saqlash; - aloqalar o'rnatish va tinchlikparvarlik (Ro'ziyev, 2023). Mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari I.To'xliyev, R.Amriddinova, Sh.Ro'ziyev, O.Xamidov, N. Ibadullayev F.Aziztoeyeva, B. Mamatov va boshqalar boshqalarning ilmiy asarlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlariga doir ko'plab masalalar yoritilgan lekin, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishga oid ayrim masalalar "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil 6/2021 (№ 00056) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 428 yetarlicha o'rganilmaganligi bois ba'zi muammolar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda (Ro'ziyev, 2023). Xususan, To'xliyev (2001): "Turizm (frans. tour – sayr, sayohat) sayyohlik-sayohat (safar) qilish, faol dam olish turlaridan biri.

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sogʻlomlashtirish, maʼrifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarga borilgan joyda (mamlakatda) haq toʻlanadigan faoliyat bilan shugʻullanmaydigan holda joʻnab ketishi tushuniladi” deb hisoblaydi. Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishi mobaynida qiyosiy taxlil va tizimli qiyoslash, ekspert baholash kabi koʻplab usullardan keng foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tarixiy yondashuv va tushunchalarni tasniflash metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar mavzuni nazariy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Muzeyshunoslik va muzey turizmining tarixiy shakllanishi

Muzeylarning ilk prototiplari qadimgi Misr, Yunoniston va Rim sivilizatsiyalarida shakllangan boʻlib, ular hukmdorlar va ibodatxonalar qoshidagi kolleksiyalar koʻrinishida mavjud boʻlgan. Oʻrta asrlarda muzeylar diniy va saroy kolleksiyalari shaklida rivojlandi.

XVII–XVIII asrlarda Yevropada “cabinet of curiosities” paydo boʻlib, bu jamoatchilik uchun ochilgan dastlabki muzeylarga asos boʻldi. XIX asrda esa muzeyshunoslik alohida fan sifatida shakllandi va muzeylarni ilmiy asosda tashkil etish, fondlarni tasniflash va saqlash qoidalari ishlab chiqildi.

Muzey va turizm integratsiyasi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida temiryoʻl va transport rivoji bilan turizm ommalashdi.

Shu davrdan boshlab muzeylar turistlar uchun asosiy madaniy obyekt sifatida qarala boshlandi. 1920–1930-yillarda Luvr, Britaniya muzeyi, Ermitaj kabi yirik muzeylar maxsus turistlar uchun ekskursiyalar va kataloglar ishlab chiqdi.

“Turistik muzeyshunoslik” tushunchasining shakllanishi

1960–1970-yillardan boshlab “museum tourism” va “cultural tourism” atamaları ilmiy muomalaga kirdi. 1980–1990-yillarda UNESCO va ICOM doirasida muzey va turizm integratsiyasi muhokama qilinib, “turistik muzeyshunoslik” mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida shakllandi.

Zamonaviy rivojlanish bosqichlari

XXI asrda turistik muzeyshunoslik quyidagi yoʻnalishlarda rivojlandi:

interaktiv va multimedia koʻrgazmalar;

audio-gidlar, QR-kodlar;

virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR);

pandemiya davrida onlayn muzey turizmi.

Oʻzbekistonda turistik muzeyshunoslik rivoji

Oʻzbekistonda Amir Temur muzeyi, Samarqand, Buxoro va Xiva muzey-qoʻriqxonalari xalqaro turizm markazlariga aylandi. “Buyuk Ipak yoʻli” konsepsiyasi doirasida muzeylar turistik marshrutlarning ajralmas qismiga aylandi. Soʻnggi yillarda raqamli ekskursiyalar va multimedia xizmatlari joriy etilmoqda.

Muzey turizmi va madaniyatlararo kommunikatsiya

Muzey turizmi madaniy-maʼrifiy turizmning muhim shakli boʻlib, unda madaniyatlararo kommunikatsiya ikki shaklda namoyon boʻladi:

subyektli shakl – turistlar va mahalliy aholi, gidlar o‘rtasidagi muloqot;
obyektli shakl – turist va madaniy obyekt (muzey eksponatlari) o‘rtasidagi noverbal muloqot.

Bu jarayonda davomiylik, ishtirok darajasi, intensivlik va kognitivlik muzey turizmi samaradorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turistik muzeyshunoslik faqat iqtisodiy foyda keltiruvchi soha emas, balki madaniy qadriyatlarni uzatish va madaniyatlararo muloqotni kuchaytiruvchi mexanizmdir. Muzeylar orqali turistlar begona madaniyat bilan nafaqat bilim darajasida, balki hissiy va aksiologik darajada ham tanishadi.

O‘zbekiston sharoitida muzeylarning raqamlashtirilishi va innovatsion xizmatlar joriy etilishi turistik muzeyshunoslikning istiqbolini yanada kengaytiradi. Xalqaro tajriba (Luvr, Vatikan, Britaniya muzeyi) bilan taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, marketing va brending strategiyalarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, turistik muzeyshunoslik XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan va bugungi kunda mustaqil ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda. U muzeylarni ilmiy saqlash markazidan tashqari, turizmning asosiy obyektiga aylantiradi. Raqamli texnologiyalar, barqaror turizm va madaniyatlararo kommunikatsiya ushbu yo‘nalishning kelajakdagi rivojlanishining asosiy omillari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Farmon (2017) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Harakatlar strategiyasi” PQ–4947-sonli Farmon 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>
2. Qaror (2017) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>
3. Richards, G. (1996) Cultural Tourism in Europe. CABI, Wallingford. [1, c. 45]
4. Ro‘ziyev Sh. (2023) “O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi” J. Экономика и финансы. <https://cyberleninka.ru/>.
5. Дмитриевский Ю.Д. (2000) Туристские районы мира. Смоленск, -224 с. Колотова Е.В. (2016) Рекреационное ресурсоведение: Учеб. пособие. - М.: РМАТС. [1, с. 92-93]
6. Тухлиев Н., Таксанов А. (2001) Экономика большого туризма. Т.: «Узбекистон миллий энциклопедияси», -208 с. Стр. 13